


## BALETMASTERLIKNING REALIZM METODI

*Azamat Tillayev Miyliyevich**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**Urganch filiali "Klassik raqsni o'r ganish**uslubiyoti" fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada siz raqsning nozik turlaridan biri bo'lmish baletning xususiyatlari, baletmeysterning ijodiy uslubi hisoblanmish realizm metodi haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** realizm metodi, balet, sahna, baletmeyster, xoreografiya, sahnaviy raqs, sahnalashtiruvchi baletmeyster, obraz.

**РЕАЛИСТИЧЕСКИЙ МЕТОД БАЛЕТНОГО МАСТЕРСТВА***Азамат Тиллаев Миильевич**Государственная академия хореографии**Узбекистана Ургенчский филиал**"Обучение классическому танцу" Методология"**учитель-предметник*

**Аннотация:** В этой статье вы получите больше информации об особенностях балета, одного из тонких видов танца, и методе реализма, который является творческим стилем балетмейстера.

**Ключевые слова:** метод реализма, балет, сцена, балетмейстер, хореография, сценический танец, балетмейстер, образ.

Xoreografiya - jamiyat madaniyati rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunadigan ijodiy faoliyatning o'ziga xos turi. Raqs - bu san'at va har qanday san'at hayotni majoziy va badiiy shaklda aks ettirishi kerak. Xoreografiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u odamning fikrlarini, his-tuyg'ularini, boshdan kechirganlarini nutqsiz, harakat va mimikalar yordamida yetkazadi. Raqs, shuningdek, raqqosning o'zini makonda va vaqtida ritmik tarzda tashkil etilgan tana harakatlari ko'rinishida o'zini namoyon qilishining og'zaki bo'lmagan usulidir.

Raqs hamma odamlar va jamiyatlarning madaniy an'analarida mavjud bo'lgan va mavjud. Insoniyatning uzoq tarixi davomida u madaniy rivojlanishni aks ettiruvchi tarzda o'zgardi. Bugungi kunda xoreografiya san'ati an'anaviy xalq va professional sahnani qamrab oladi. Raqs san'ati ma'lum darajada, har bir etnik guruh madaniyatida mavjud va bu hodisa tasodifiy bo'lmasligi kerak, bu obyektiv xarakterga ega, chunki an'anaviy xalq xoreografiyası jamiyatning ijtimoiy hayotida insoniyat rivojlanishining

dastlabki bosqichlarida ham, hozir madaniyatning vazifalaridan birini bajarganda ham muhim o‘rin tutadi.

Realizm metodi voqelik rivojini haqqoniy tarixiy aniq tasvirlashga asoslangan ijodiy metod hisoblanadi. Bu metodni paydo bo‘lish bugun o‘tmishdagi badiiy madaniyat rivoji tajribasi va eng avvalo san’atdagi ilg‘or realistik yo‘nalish zamin bo‘lib xizmat qildi. Realizm tipik sharoitlarda tipik xarakterlarni haqqoniy tasvirlashni nazarda tutadi. XIX asr ikkinchi yarmida san’atda metod, yo‘nalish sifatida shakllangan tanqidiy realizm - realizmnning bevosita asosi hisoblanadi Tanqidiy realizm istibdodni, insonni inson tomonidan ezilishini qoraladi, insonning va uning tabiatni mohiyatiga ijtimoiy baho berdi ularni jamiyat hayotining aniq sharoiti bilan isbotladi. Inson psixologiyasiga bo‘lgan chuqur qiziqish, inson qalbining tub-tubiga kirib borishga intilish tanqidiy realizmga xos bo‘lgan muhim xususiyat hisoblanadi. Xalqqa ijtimoiy kuch sifatida qarash tanqidiy realizmning muhim xususiyatidir. Realizm metodi tanqidiy realizmning hayot bilan, zamon bilan chambarchas aloqa, tipik xarakaterlarni tipik sharoitda haqqoniy tasvirlash singari eng yaxshi xususiyatlarini o‘zlashtira oldi. Adabiyotga qiyoslab olinsa realizm metodi adabiyotni faqat bir guruh odamlargagina emas, balki jamiyatning asosi, uning kelajagi bo‘lgan millionlarga xizmat qilishini anglatadi. Bu o‘tmish tajribasini bugungi kun tajribasi bilan jonli bog‘laydigan erkin adabiyot bo‘lib qoladi.

Realizm voqelikni faoliyat, ijod sifatida ta’kidlaydi. Uning maqsadi insonning bebaho individual qobiliyatini rivojlantirish, uning tobora ortib boruvchi ehtiyojlarini qondiruvchi bu zaminda yashash katta baxt ekanligini anglash singari g‘oyalardan iboratdir. G‘oyaviylik, xalqchillik, erkinlik realizmning asosiy prinsiplari hisoblanadi. Realizm metodini qaror topish jarayoni kurashlarda va izlanishlarda kechdi. Bu kurash o‘tmish san’ati tarafdarlari va bugun eskilikni rad etuvchi yang san’at “tarafdarlari” o‘rtasidagi kurash edi. Bu xoreografiya sohasida ham ro‘y berdi.

“Xoreografik san’atni hayot bilan yaqinlashtirishga intilish davrning jiddiy talabi bo‘lib qoldi. Bu baletmeysterlar, dramaturglar oldiga xoreografik asarlarni realistik talqin qilish vazifasini qo‘ydi. Masalan 1920-yillarda sahnalashtirilgan balet spektakllarida oddiy xalq vakillaridan bo‘lgan kurashchilar obrazi paydo bo‘ldi. Aynan o‘tgan 20-yillari xoreograflar izlanishlariga realistik yo‘nalish, xalqonalik nuqtayi nazaridan qarash lozim bo‘ldi. 1920-yillar boshlaridagi baletmeysterlar eng ilg‘or demokratik g‘oyalarni qamrab olib keyingi yillardagi balet san’atida yaratilayotgan asarlarni xalqona mazmun bilan boyitish, raqs san’atini keng xalq ommasiga ta’lim va tarbiya beradigan ta’sirchan omilga aylantirish lozim bo‘ldi”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> D.M Abduxakimova Raqs kompozitsiyasi asoslari-T:2020 87b.

Klassik baletni qadriyat yodgorligidek saqlab qolish lozimligi, klassik baletlar lisoni baletlar klassik merosi lisoni bo‘lishi mumkinligi, yangi syujet, yangi spektakl klassik raqs lisoniga umuman aloqasi bo‘lmagan butunlay yangi lison kerakligi haqidagi fikrlar keng tarqaldi. Ko‘pgina san’at nazariyotchilari va amaliyotchilari klassik balet lisonini o‘tmishdagi akademik sahna lisoni deb hisobladilar. Ularning fikricha kelajak baleti yetakchi teatrлar devori ortida, yangi o‘qitish, erkin plastika va akrobatikaga asoslangan elementlarda, yoki mashina, maishiy raqslar xarakatlarining elementlari imitatxiyaga qurilgan studiyalarda vujudga keldi. Aslida o‘sha davrdagi izlanishlar tabiiy bo‘lgan, ammo xoreografik san’atning istiqboldagi rivojining realistik yo‘nalishini belgilash, vaqtinchalik adashishlar va xatolardan qutilish eng muhim jihat hisoblangan.

Klassik meros bilimdoni F. Lopuxov o‘sha davrlarda o‘z ijodi haqida shunday yozgan edi: “Baletni qisman rad etilishi tufayli, menimcha, xoreografiya san’atining yangi shaklini yaratish, uni erkin va o‘ziga xos raqs asosiga qurish lozim. Aks holda xoreografiya syujetli-aksessuar baletning tor doirasida qolib ketib, xoreogafik histuyg‘ularning butun boyligini ocha olmaydi va oniy holatlarni berish imkoniyati bo‘lmaydi... bizning raqs san’atimiz - nomavjudlik gimni, yerdan, sevgidan, yuqorilikka ko‘tarilgan quvonch giminidir. “Ammo bu prinsiplarga qurilgan baletning raqs simfoniyasi muvaffaqiyat, qozonmadi. Uning shakli o‘ta mavhum bo‘lib qolgan edi. “Olam buyukligi” baleti repertuardan tushib qoldi. Katta teatrda sahnalashtirilgan “Qizil lolaqizg‘aldoq” baleti tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi. U uzoq yillar sahnadan tushmadi. Zamonaviy mavzuga murojaat qilinishi tomoshabinning e’tiborini tortdi. Balet butun mamlakat teatri sahnalarida namoyish etildi, xorijda ham e’tiborga sazovor bo‘ldi. Bunday muvaffaqiyat eng avvalo spektakl dramaturgiyasiga va o‘ta ohangdor musiqaga bog‘liq bo‘ldi.

Baletmeysterlar klassik raqs tili bilan asar mazmunini ishonchli tarzda ohib berdi, inson ongini shakllanish jarayonini ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ldi. Spektaklning plastik partiturasida klassik raqs bilan birga xalq xoreografiya elementlaridan ham foydalanildi, ular birligida musiqa materiali bilan yaxlit butunlikni tashkil etdi. “Qizil lolaqizg‘aldoq” baletining muvaffaqiyati bu balet teatridagi realistik yo‘nalishning g‘alabasi bo‘ldi, uning balet sahnasida zamon mavzusini realistik hal qilish imkoniyatini tasdiqladi. Baletda gumanizm, do‘stlik, birodarlik mavzulari o‘z aksini topdi”<sup>2</sup>.

Syjeti xalq hayotidan, uning ozodlik va erkinlik uchun kurashidan olingan balet spektakllari paydo bo‘ldi. Ularda o‘z xalqining ozodligi uchun kurashgan shaxslar bosh

<sup>2</sup> E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova Xoreografiya va raqs san’ati asoslari-T:2015 126b.

qahramon qilib olindi. “Parij olov ichida” baleti ana shunday asarlardan biri bo‘lib qoldi.

Baletmeyster V.Vaynonen musiqiy materialga tayanib, ozodlik uchun kurashgan kishilarning umumlashma obrazani yaratdi. Sahnada u farandolu, overnucha, basklarning qahramonlik raqlaridan foydalandi. Xalqona raqlardan foydalanib, u ushbu klassik baletning o‘ziga xos xoreografiyasini yarata oldi. Xoreografiya san’atining barcha ifodaviy vositalaridan, jumladan aktyor ijrosidan ham mohirona foydalanish spektaklni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyati bo‘lib qoldi.

Asta-sekin balet millionlab tomoshabinlarga tushunarli bo‘lib qoldi, ularning fikrlari, hislari va intilishlarini ifodalab berdi. Balet spektakllari endi nafaqat ertakona syujetlar, balki bugungi kun mavzularini ham ochib berdi.

V.Vaynonen, R.Zaxarov, L.Lavrovskiy singari baletmeysterlar o‘zlarining san’atini chuqur g‘oyaviy bo‘lishiga intildilar, o‘z ijodida ular xalq an’analariga tayandilar, hayot haqiqatini aks ettirishga harakat qildilar. Bu ajoyib san’atkorlarning ijodi balet teatri tomonidan realizm metodini o‘zlashtirilishiga imkon yaratdi. Bu metod sahnada voqealarni, insoniy munosabatlarni, maishiy hislatlarni, shuningdek liboslarni haqqoni tasvirlashni nazarda tutadi. Albatta sahna janri xususiyatini hisobga olib, baletmeyster, eng avvalo, haqqoni hayotiy badiiy obrazlar yaratishga intilishi lozim. Bu ham muallifdan, ham ijrochidan bir tomondan hayotni chuqur bilishni, ikkinchi tomondan janr xususiyatini yaxshi anglashni, qahramonlarning ichki olamiga va his-tuyg‘ulariga kira olishni talab qiladi.

“O‘tgan asrning 1930-yillari va keyingi 1940-1950-yillari balet san’atida ulkan siljish kuzatildi, ya’ni u katta adabiyot bilan oshno bo‘ldi, spektakllar keng fantaziya, qudratli nafasga ega bo‘ldi. “Romeo va Julietta” baleti realistik balet yo‘nalishida yangi sahifa ochdi”<sup>3</sup>. Baletmeyster va artistlar buyuk, asarning mazmuni va g‘oyasini nozik va yorqin ochib bera oldilar. Shekspir yaratgan obrazlar va xarakterlar balet sahnasida yanada jonlanib ketdi. Bu spektakl ustida ishslash chog‘ida realizm prinsiplarining samaradorligi yana bir bor isbotlandi. U qahramonlar kechinmalariga chuqur qiziqishda, ularning taqdirini ko‘rsatishga intilishda, sahnada ishonchli tarixiy vaziyatni yaratishda, uning qonuniyatlarini anglashga intilishi kabilarda ko‘rinadi. Bularning barchasiga xoreografik ifodaviy vositalar, raqs va pantomima kabilarni organik uyg‘unlashtirish bilan erishildi. Katta teatr bu spektaklni Londonda namoyish etdi va u juda katta muvaffaqiyat qozondi.

Tarixiylik san’atdagi yo‘nalish sifatidagi realizmning muhim xususiyati hisoblanadi.

<sup>3</sup> J.G‘aniyev Markaziy Osiyo san’ati tarixi-T:2021 199b.

Realizm tarixiyligi xalqonalik metodologiyasiga tayanadi, bu san'atkorga hayotni ijtimoiy taraqqiyot yo'lida harakatda ko'rsatishga yordam beradi.

1930-1950- yillarda milliy balet teatrлarining repertuarlari sezilarli kengaydi. Ular ko'rsatgan spektakllar xoreografiyada realizmni topishiga katta hissa bo'lib qo'shildi. U san'atkorlarni (librettachilar va baletmeysterlar) xalq xarakteri, xalq hayotidan syujetlarga murojaat qilish, sahnalashtirishlari uchun milliy kompozitorlar musiqasidan foydalanishni nazarda tutadi. Milliy materiallar asosida bir qator spektakllar yaratildi.

Baletmeysterlar o'z asarlarida insonning ichki olamini ochib berib, uning sahnaviy obrazini yaratib, bu odamning qalbi, psixikasi, milliy ruhi va ongi, mazkur millat, xalqqa xos bo'lgan xususiyatlardan iborat milliy hislatini ham ko'rsatib berishi kerak bo'ldi. Shu bilan birga har bir hududdagi kishilarning hayoti boshqa xalqlar hayoti bilan ham chambarchas bog'liq, ular birga mehnat qiladi, bir biriga yordam beradi, iqtisodiy va madaniy bunyodkorlikni bir-biridan o'rganadi. Xalqlar madaniyatlarini o'zaro boyishi xoreografik san'atda ham o'z ifodasini topdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.M Abduxakimova Raqs kompozitsiyasi asoslari-T:2020 87b.
2. E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova Xoreografiya va raqs san'ati asoslari-T:2015 126b.
3. J.G'aniyev Markaziy Osiyo san'ati tarixi-T:2021 199b.
4. К.Б. Ибрагимова Методика изучения историко-бытового танца-Т:2020 178b.